



O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDA KONSEPTUAL METAFORALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Hamroyeva Shahlo Hamdamovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19246392>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklar tarkibida shakllangan konseptual metaforalar lingvokulturologik va kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologik birliklar xalqning milliy tafakkuri, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi konseptual model sifatida talqin qilinadi. Metaforik tizimlarning milliy xususiyatlari semantik, madaniy va psixologik omillar bilan bog'liq holda yoritiladi.

Kalit so'zlar. konseptual metafora, frazeologik birlik, milliy madaniyat, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik.

Abstract. This article analyzes conceptual metaphors in Uzbek phraseological units based on linguocultural and cognitive approaches. The study identifies the role of phraseological units as conceptual models reflecting national thinking and cultural values.

Keywords: conceptual metaphor, phraseological unit, national culture, cognitive linguistics.

Аннотация. В статье анализируются концептуальные метафоры в узбекских фразеологических единицах на основе лингвокультурологического и когнитивного подходов.

Ключевые слова: концептуальная метафора, фразеологическая единица

Til madaniyatning asosiy ko'zgusi sifatida xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiradi. Frazeologik birliklar esa milliy tafakkurning konseptual modellarini ifodalovchi muhim til birliklari hisoblanadi. Konseptual metafora nazariyasi abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali izohlash imkonini beradi [1]. So'nggi yillarda tilshunoslikda kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlarga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, konseptual metafora nazariyasi til birliklarini inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini bermoqda. O'zbek frazeologik birliklari esa xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qarashlarini ifodalovchi muhim lingvistik manba hisoblanadi. Shu bois ularni konseptual metafora asosida tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Konseptual metafora nazariyasi (George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan) mavhum tushunchalarni tushunish uchun aniq tushunchalardan





foydalanishga asoslangan. Masalan “BAHS – BU URUSH” metaforasi orqali bahsni ikki tomon o’rtasidagi kurash sifatida tushunamiz. Konseptual metafora nazariyasiga ko’ra, metafora faqat badiiy bezak emas, balki insonning borliqni anglash mexanizmidir. Ushbu nazariya G’arb tilshunosligida shakllangan bo’lsa-da, uning tamoyillari turli tillar, jumladan, o’zbek tili materiallari asosida ham samarali tadbiq etilmoqda. Mavhum tushunchalar aniq jismoniy tajriba orqali izohlanishi metaforik tafakkurning universal xususiyati hisoblanadi. Konseptual metafora nazariyasi kognitiv tilshunoslik doirasida shakllangan bo’lib, til birliklarining tafakkur bilan uzviy bog’liqligini ko’rsatadi [2]. O’zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari bir qator olimlar tomonidan o’rganilgan [3].


O’zbek frazeologiyasida “inson – makon”, “hayot – yo’l”, “do’stlik – qo’rg’on” kabi konseptual metaforalar keng tarqalgan. “Ko’ngli yorishdi”, “yuragi toraydi”, “yo’li ochildi” kabi iboralar psixologik holatni fazoviy va jismoniy tushunchalar orqali ifodalaydi. Ushbu metaforalar milliy tafakkurda qalb va ruhiyatning ustuvorligini ko’rsatadi. Shuningdek, tabiat obrazlariga asoslangan metaforalar o’zbek xalqining dehqonchilik va chorvachilik bilan bog’liq tarixiy hayot tarzini aks ettiradi. “Ildizi chuqur”, “mevasi shirin”, “yerga urmoq” kabi iboralarda tabiiy jarayonlar ijtimoiy va axloqiy baholash vositasiga aylangan.

Frazeologik metaforalarda milliy qadriyatlar, jumladan, or-nomus, hurmat, sabr va jamoaviylik g’oyalari markaziy o’rin egallaydi. Masalan, “yuzini yorug’ qilmoq” iborasi ijobiy ijtimoiy bahoni, “yuzini yerga qaratmoq” esa ijtimoiy qoralashni ifodalaydi. Bu holatda yuz konsepti sha’n va ijtimoiy mavqening ramziy ifodasiga aylanadi. O’zbek frazeologik birliklarida mavjud konseptual metaforalar lingvokulturologik hamda empirik sotsiologik so’rovnoma asosida kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklarning faqat semantik emas, balki milliy mentalitet bilan bog’liq konseptual modellarni aks ettirishi isbotlandi. Masalan:

1. “Ko’ngli yorishdi” – EMOTSIYA VA YORUG’LIK metaforasi
2. “Yuragi siqildi” – EMOTSIYA VA JISMONIY BOSIM metaforasi
3. “Yo’li ochildi” – HAYOT VA YO’L metaforasi
4. “Yuzini yorug’ qildi” – SHA’N VA YORUG’LIK metaforasi
5. “Ildizi chuqur” – TAJRIBA VA O’SIMLIK metaforasi

Mazkur birliklar inson tafakkurida mavhum tushunchalarning aniq fazoviy, yoki jismoniy tajriba orqali anglanishini ko’rsatadi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, semantik tahlil, lingvokulturologik tahlil hamda sotsiologik so’rovnoma metodlaridan foydalanildi: Tadqiqot jarayonida






120 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlarga o'zbek tilidagi 25 ta frazeologik birlik berilib, ularning metaforik mazmuni talqin qilindi.

Metaforik model	To'g'ri talqin (%)	Noto'g'ri talqin (%)
Hayot – yo'l	78%	22%
Hissiyot – jismoniy holat	69%	31%
Inson – makon	72%	28%

Tahlillar natijasida frazeologik birliklar tarkibidagi konseptual metaforalar milliy madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Diagrammada respondentlarning o'zbek frazeologik birliklari tarkibidagi konseptual metaforalarni to'g'ri talqin qilish darajasi aks ettirilgan. Natijalarga ko'ra, "HAYOT-YO'L" modeli 78%, "OR – YUZ" modeli esa 81% aniqlik bilan talqin qilingan.

So'rovnoma natijalari diagrammasi



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek frazeologik birliklarida mujassamlashgan konseptual metaforalar xalqning milliy tafakkuri dunyoqarashini, mentalitetini va madaniy tajribasini, qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisadir. Ular tilning semantik boyligini oshirish bilan birga, madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, konseptual metafora asosidagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligi uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 90 б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 368 б.



4. Маҳмудов Н. Тил ва маданият масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 180 б.
5. Усмонов Б. Лингвокультурология ва миллий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2014. – 200 б.

